

## XUSHMUOMALALIKNING NAZARIY ASOSLARI TUSHUNCHASI

Guljahon Usmanova Ulug'bek qizi

E-mail: [solijonova@list.ru](mailto:solijonova@list.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21973396>

**Annotatsiya:** Xushmuomalalik madaniy jihatdan belgilanadigan hodisa ekanligi qabul qilingan, va bir madaniyatda xushmuomalalik hisoblangan narsa boshqasida ko'pincha juda qo'pol bo'lishi mumkin. Shu sababli, ona tilida so'zlashuvchilar va chet tilida so'zlashuvchilar o'rtasida tushunmovchiliklarning oldini olish uchun real hayotda xushmuomalalik haqidagi bilimning ahamiyatini hisobga olish zarur. Ushbu maqola xushmuomalalik nazariyasi haqida qisqacha umumiy ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Xushmuomalalik, ijobiy yuz, salbiy yuz, o'z-o'zini tasvirlash, yuzga tahdid soluvchi harakatlar.

**Abstract:** It is accepted to contemplate that politeness is a culturally defined phenomenon, and what is considered polite in one culture can often be quite rude in another. So, it is necessary to take into account the importance of the knowledge of politeness in real life to avoid misunderstanding between native and non-native speakers. This article gives a brief overview about politeness theory.

**Key words:** Politeness, positive face, negative face, self-image, face-threatening acts.

Diaxronik nuqtai nazardan, xushmuomalalik lingvistik kategoriya sifatida XX asrning so'nggi uch o'n yilligida muhim ahamiyat kasb etgan. Uning asosiy asoschilari Lich, Braun va Levinson hisoblanadi. Zamonaviy ingliz tilidagi "xushmuomalalik" tushunchasining kelib chiqishi XVI asrga borib taqaladi, o'sha davrda u saroy zodagonlari orasidagi erkak vakillar tomonidan namoyon etiladigan ijtimoiy hamkorlikka asoslangan xatti-harakatni anglatgan. Shu tarzda talqin qilingan xushmuomalalikning asosiy unsurlaridan biri "muloyim yoki samimiy suhbat olib bora olish qobiliyati" edi [1].

Xushmuomalalik tushunchasi vaqt o'tishi bilan faqat saroy odob-axloqi doirasidan chiqib, umuminsoniy muloqot normasi sifatida shakllana boshladi. XX asrning ikkinchi yarmida bu tushuncha nazariy tilshunoslikning mustaqil yo'nalishiga aylandi, chunki tilshunoslar suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatni faqat grammatik to'g'rilik nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy va psixologik omillar orqali ham tushuntirish zarurligini anglab yetdilar.

Jefri Lich (Geoffrey Leech) tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik tamoyili (Politeness Principle) bu boradagi eng muhim nazariyalardan biri hisoblanadi. Lich fikricha, muloqot jarayonida so'zlovchi nafaqat Grays tomonidan ta'riflangan hamkorlik tamoyiliga (Cooperative Principle), balki xushmuomalalik tamoyiliga ham amal qiladi, chunki sof mantiqiy va aniq gap ba'zan suhbatdoshning obro'siga putur yetkazishi mumkin. Shu sababli so'zlovchi ko'pincha bevosita va qat'iy shakllarni yumshoq, bilvosita shakllar bilan almashtiradi.

Lich xushmuomalalik tamoyilini bir necha maksimalarga ---ya'ni muloqot qoidalariga --- ajratadi: taktililik maksimasi (boshqalarning zararini kamaytirish, foydasini oshirish), saxovat maksimasi (o'zining foydasini kamaytirish, boshqalarning foydasini oshirish), ma'qullash maksimasi (boshqalarni kamsitmaslik, ularni maqtash), kamtarlik maksimasi (o'z-o'zini maqtamaslik), kelishuv maksimasi (kelishmovchilikni kamaytirish) va hamdardlik maksimasi (suhbatdoshga nisbatan hamdardlik bildirish). Ushbu maksimalar amaliy nutqda bir-biriga ziddek tuyulishi mumkin, biroq muvaffaqiyatli muloqot aynan ularning o'zaro muvozanatiga bog'liq bo'ladi.

Xushmuomalalik nazariyasini rivojlantirishga hissa qo'shgan yana bir muhim tushuncha bu Yels universiteti tilshunosi Robin Lakoff tomonidan taklif etilgan uchta qoidadir: masofani saqlash (boshqalarga tazyiq o'tkazmaslik), tanlov imkonini berish (suhbatdoshga qaror qabul qilish erkinligini qoldirish) va do'stona bo'lish (suhbatdoshni o'ziga yaqin his qildirish). Ushbu uchta qoida keyinchalik Braun va Levinsonning ijobiy hamda salbiy yuz nazariyasi uchun muhim nazariy zamin yaratdi.

Oxford lug'atida ingliz tilidagi "polite" (xushmuomala) so'zining ta'rifi boshqa insonlarga nisbatan hurmat va e'tibor ko'rsatuvchi xatti-harakatga ega bo'lish yoki uni namoyon etish sifatida talqin qilinishi mumkin [2].

Cambridge ingliz tili lug'atida "polite" so'zining ma'nosi: ijtimoiy jihatdan to'g'ri tarzda o'zini tutish hamda boshqa insonlarning his-tuyg'ulariga tushunish va g'amxo'rlik ko'rsatish; do'stona bo'lishdan ko'ra ijtimoiy jihatdan to'g'ri bo'lish; ijtimoiy jihatdan to'g'ri tarzda o'zini tutishga o'rgatilgan insonlar [3].

Webster lug'ati boshqa bir ta'rifni beradi: "Xushmuomalalik — bu xushmuomala bo'lish sifati yoki holati; xulq-atvor nafisligi; madaniylik; muloyim xatti-harakat; iltifotlilik; e'tiborli munosabat" [4].

Xushmuomalalik nazariyasi 1970-yillarda Penelopa Braun va Stiven Levinson tomonidan ishlab chiqilgan pragmatikaning muhim tarmog'idir. Nazariya Erving Goffmanning "yuz" tushunchasiga tayanadi va biz nima uchun va qanday qilib boshqalarga nisbatan xushmuomala bo'lishimizga alohida e'tibor qaratgan holda bu tushunchani rivojlantiradi. Goffman "yuz"ni "ijtimoiy munosabatlarda [biz] o'rnatishga intiladigan ijobiy ommaviy qiyofa" deb ta'riflaydi. Uni "o'z-o'zini tasvirlash" sifatida tushunish ham foydalidir. Tabiiyki, ko'pchiligimiz o'z-o'zimizni tasvirlashni himoya qilishni va boshqalarga o'zimiz haqimizda ijobiy taassurot qoldirishni istaymiz.

Xushmuomalalik nazariyasi bizda ikki xil "yuz" turi mavjud degan taxminga asoslanadi: ijobiy yuz va salbiy yuz.

- Ijobiy yuz — bu shaxsning boshqalar tomonidan yoqtirilish va qadrlanishga bo'lgan istagidir. Buni insonning o'z-o'zini hurmat qilishi sifatida tasavvur qiling.
- Salbiy yuz — bu shaxsning o'zining shaxsiy huquqlarini, masalan, so'z va harakat erkinligini himoya qilishga bo'lgan istagidir. Biz insonlarga nisbatan xushmuomala bo'lganimizda, ushbu ikki turdan biriga murojaat qilamiz.

Braun va Levinson ta'kidlashicha, biz insonlarga nisbatan qo'pol muomala qilganimizda yoki ularning shaxsiy erkinliklariga to'sqinlik qilganimizda, biz yuzga tahdid soluvchi harakatlar sodir etamiz (bular biz gaplashayotgan insonga qaratilgan bo'ladi). Biz o'z kamchiliklarimizni tan olib, ular uchun uzr so'raganimizda ham yuzga tahdid soluvchi harakatlar sodir etamiz (bular esa o'zimizga qaratilgan bo'ladi). Ular, shuningdek, ijtimoiy muloqot davomida suhbatdoshlar o'rtasida hamkorlik zarurligini ta'kidlaydilar.

Braun va Levinsonning fikricha, yuzga tahdid soluvchi harakatlar so'zlovchining ham, tinglovchining ham yuziga (ijobiy yoki salbiy) tahdid solishi mumkin.

Tinglovchining ijobiy yuziga va o'z-o'zini tasvirlashiga tahdid soluvchi harakatlarga norozilik bildirish, ayblovl, tanqid va kelishmovchilik ifodalari kiradi. Yuzga tahdid soluvchi harakatlar, shuningdek, so'zlovchining tinglovchining ijobiy yuziga befarq ekanligini ko'rsatuvchi ifodalar bo'lishi mumkin, masalan, taqiqlangan yoki hissiy mavzularni tilga olish,

gapni bo'lish va keskin his-tuyg'ularni ifodalash. Keling, ba'zi yuzga tahdid soluvchi harakatlarni (ijobiy yuz) ko'rib chiqaylik.

- "Menga bu kiyim umuman yoqmadi. "
- "Mening pishloqimni sen yeb qo'ydingmi?! "
- "Men matematikadan sendan albatta yaxshiroqman. "
- "Oldingi yigit/qizing seni doim aldamasmidi? " [5]

Endi salbiy yuzga tahdid soluvchi harakatlarga ham misollar keltiramiz. Bunday harakatlar suhbatdoshning erkin harakat qilish yoki o'z ishini o'zi hal qilish huquqiga tajovuz sifatida namoyon bo'ladi:

- "Menga darhol choy demla. "
- "Sen bugun mening uyimda tunashing kerak, boshqa gap yo'q. "
- "Bu ishni hozir, kechiktirmasdan bajarasan. "
- "Menga qarz ber, keyin qaytarishimni so'rama. "

Yuqoridagi misollarda buyruq mayli, kategorik ohang va tanlov imkoniyatining yo'qligi suhbatdoshning salbiy yuziga --- ya'ni uning mustaqil harakat qilish erkinligiga --- tahdid soluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Xushmuomala so'zlovchi, odatda, bunday holatlarda "iltimos", "agar sizga qulay bo'lsa", "xafa bo'lmasangiz" kabi yumshatuvchi vositalardan foydalanadi.

#### Xushmuomalalik strategiyalari

Braun va Levinson yuzga tahdid soluvchi harakatni amalga oshirishning to'rt xil asosiy strategiyasini ajratib ko'rsatishadi. Ushbu strategiyalar so'zlovchi tomonidan tahdidning kattaligini, suhbatdoshlar orasidagi ijtimoiy masofani va nisbiy kuchni hisobga olgan holda tanlanadi.

Ochiq (bald on-record) strategiya --- bunda so'zlovchi hech qanday yumshatishsiz, to'g'ridan-to'g'ri fikrini bildiradi. Bu strategiya, odatda, favqulodda vaziyatlarda (masalan, "Yong'in! Chiqing!") yoki yaqin munosabatlarda, tahdid darajasi past bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

Ijobiy xushmuomalalik strategiyasi --- so'zlovchi suhbatdoshning ijobiy yuzini, ya'ni uning yoqtirilish va qadrlanishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga harakat qiladi. Bunga hamdardlik bildirish, maqtash, umumiy qiziqishlarni ta'kidlash, "biz" olmoshidan foydalanish kabi vositalar kiradi. Masalan, "Sen doim ishni chiroyli bajarasan, shu safar ham menga yordam berarmiding?" iborasi ijobiy xushmuomalalikka misol bo'la oladi.

Salbiy xushmuomalalik strategiyasi --- so'zlovchi suhbatdoshning shaxsiy erkinligini cheklamaslikka harakat qiladi, shuning uchun so'roq gap, taxminiy modal fe'llar ("mumkinmi", "iltimos qilsam bo'ladimi") va uzr so'rash iboralaridan foydalanadi. "Agar sizga qiyin bo'lmasa, derazani yopib qo'yarmisiz?" jumlasini salbiy xushmuomalalikka yaxshi misol bo'ladi.

Bilvosita (off-record) strategiya --- bunda so'zlovchi o'z niyatini ochiq bildirmaydi, balki kinoya, ishora yoki umumiy mulohaza orqali ma'noni suhbatdoshning o'ziga tushunishga qoldiradi. Masalan, "Bu yerda juda sovuq ekan" degan gap orqali derazani yopishni so'rash niyati yashiringan bo'lishi mumkin. Bu strategiya eng yuqori darajadagi xushmuomalalikni ifodalaydi, chunki u suhbatdoshga javob berish yoki bermaslik erkinligini to'liq qoldiradi.

#### O'zbek tilida xushmuomalalikning milliy-madaniy xususiyatlari

Braun va Levinson tomonidan taklif etilgan universal nazariya ko'plab tillarga nisbatan tatbiq etilgan bo'lsa-da, xushmuomalalikning namoyon bo'lish shakllari tildan tilga sezilarli

darajada farq qiladi. O'zbek tilida xushmuomalalik nafaqat leksik vositalar orqali, balki grammatik kategoriyalar orqali ham ifodalanadi. Bunga eng yorqin misol "sen" va "siz" olmoshlari o'rtasidagi farqdir: "siz" olmoshi yoshi katta, mavqei yuqori yoki notanish kishilarga nisbatan hurmat ko'rsatish vositasi sifatida qo'llaniladi, "sen" esa yaqin, teng maqomdagi yoki yoshi kichik kishilarga nisbatan ishlatiladi.

Bundan tashqari, o'zbek tilida hurmat-ehtirom ifodalash uchun maxsus ko'plab lug'aviy vositalar mavjud: otchestvo yoki familiya o'rniga "aka", "opa", "amaki", "xola" kabi qarindoshlik terminlaridan yot kishilarga nisbatan foydalanish, kishilarning kasbiy yoki ijtimoiy mavqeini bildiruvchi "domla", "doktor", "professor" kabi so'zlarni ism bilan birga qo'llash, shuningdek, buyruq o'rniga so'roq yoki istak shaklidan foydalanish ("choy ichib qo'yarmisiz?") kabi holatlar buning yaqqol dalilidir. Bunday grammatik va leksik vositalarning mavjudligi shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi xushmuomalalik tizimi negizida nafaqat shaxslararo, balki ijtimoiy iyerarxik munosabatlar ham muhim o'rin tutadi.

Chet tili sifatida ingliz tilini o'rganayotgan o'zbek talabalari uchun bu farqni tushunish alohida ahamiyatga ega, chunki ingliz tilida grammatik jihatdan "sen" va "siz" farqi mavjud emas (ikkalasi uchun ham "you" olmoshi qo'llaniladi), biroq hurmat-ehtirom boshqa --- intonatsion, leksik va sintaktik --- vositalar orqali ifodalanadi. Bu farqni bilmaslik o'zbek tilida so'zlashuvchi o'quvchining ingliz tilida haddan tashqari rasmiy yoki, aksincha, haddan tashqari erkin muomala qilishiga olib kelishi mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, xushmuomalalik nazariyasi tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nutqiy muloqotning nafaqat mazmuniy, balki ijtimoiy-madaniy tomonlarini ham tushunishga xizmat qiladi. Lich tomonidan ishlab chiqilgan maksimalar, Braun va Levinsonning ijobiy hamda salbiy yuz nazariyasi va ularning to'rt xil strategiyasi muloqotdagi xushmuomalalikning nazariy asosini tashkil etadi.

Xushmuomalalikning tilma-til farqlanishi, xususan, o'zbek va ingliz tillaridagi namoyon bo'lish usullarining o'ziga xosligi shuni ko'rsatadiki, mazkur nazariya universal bo'lsa-da, uning amaliy tatbiqi har bir tilning grammatik tuzilishi va madaniy an'analariga bog'liq holda o'zgarib boradi. Shu sababli chet tilini o'rganuvchilar uchun nafaqat grammatik qoidalarni, balki muloqot madaniyatining nozik jihatlarini ham egallash muhim ahamiyatga ega. Kelgusi tadqiqotlarda o'zbek va ingliz tillaridagi xushmuomalalik strategiyalarini qiyosiy tahlil qilish, ayniqsa turli yosh va ijtimoiy guruhlar nutqi misolida o'rganish dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Nutqdagi xushmuomalalik insonlarga hamma bir-birini hurmat qiladigan va bir-biriga yaxshi munosabatda bo'ladigan do'stona muhit yaratishga yordam beradi. Ingliz tilidagi xushmuomalalik haqidagi bilim inglizlarning xatti-harakatini tushunishni osonlashtiradi va jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin bo'lgan ona tilida so'zlashuvchilar bilan chet tilida so'zlashuvchilar o'rtasidagi tushunmovchiliklarning oldini oladi. Chet tili talabalariga kelsak, ingliz tilidagi xushmuomalalikni tushunish ular chet elga tilni amalda qo'llash uchun borganlarida madaniy shokni kamaytirishi mumkin. Bu tillarni o'rganishda muhim nuqta hisoblanadi, chunki turli mamlakatlarda lingvistik farqlar mavjudligini bilamiz. Hech kim qo'pol inson bilan muloqot qilishni istamasligi, aksincha hamma xushmuomala insonlarni hurmat qilishi va bunday sifat aql-idrok belgisi sifatida baholanishi tabiiy. Nutqda xushmuomala

iboralardan foydalanish insonlarga bosim o'tkazmasdan, biror ishni xushmuomalalik bilan bajarishga undashga yordam beradi.

Amaliyotda xushmuomalalik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun til o'rgatuvchilar rolli o'yinlar va vaziyatli dialoglardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan, talabalarga do'kondan narsa sotib olish, mehmonni kutib olish yoki kelishmovchilikni yumshoq tarzda bildirish kabi vaziyatlar taqdim etilib, ular turli xushmuomalalik strategiyalarini amalda qo'llashga o'rgatiladi. Bunday mashqlar nafaqat leksik boylikni oshiradi, balki o'quvchida madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida o'zini erkin va ishonchli tutish ko'nikmasini shakllantiradi, bu esa zamonaviy chet tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biridir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Антипова А.М. «Система речевой интонации в английском языке», Москва, 1979.
2. Cambridge Advanced Learner's Dictionary, 1995
3. Oxford Dictionary of English, Oxford University Press, 2003. ISBN 0- 19-861347-4, ISBN 978-0-19-861347-3.
4. Sell, R. D. (2005). Literarj' texts and diachronic aspects of politeness. In R. J. Watts, S. Ide and K. Ehlich (eds.), *Politeness in Language: Studies in its History. Theory and Practice* (pp. 109-130). Berlin: Mouton.
5. Watts, Richard J. 2003. *Politeness*. Cambridge: Cambridge University Press.